



PROBLEMS IN DISTANCE LEARNING AND THEIR SOLUTIONS

Abduvakhobov Shohruhbek Ikromjon ogli

NamDU basic doctoral student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15663317>

ARTICLE INFO

Received: 08th June 2025

Accepted: 13rd June 2025

Online: 14th June 2025

KEYWORDS

Distance learning, distance learning courses, blocks and elements of electronic educational and methodological complex, Internet system, platform.

ABSTRACT

This article describes the organization of distance learning in the education system, its specific features, advantages and disadvantages, as well as ways to eliminate existing shortcomings.

MASOFAVIY TA'LIMDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Abduvaxobov Shohruhbek Ikromjon o'g'li

NamDU tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15663317>

ARTICLE INFO

Received: 06th June 2025

Accepted: 12nd June 2025

Online: 13rd June 2025

KEYWORDS

Masofaviy ta'lim, masofaviy o'quv kurslari, elektron o'quv-uslubiy majmua bloklari va elementlari, internet tizimi, platforma.

ABSTRACT

Mazkur maqolada ta'lim tizimida masofaviy ta'limni tashkil etish, uning o'ziga xos jihatlari, afzalliklari hamda kamchiliklari, shuningdek, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari bayon etilgan.

KIRISH

Ko'pchilik internetdan faqatgina yangiliklar bilan tanishish, axborot qidirish, elektron pochtdan foydalanish yoki gap sotish uchun foydalanishi hech birimizga sir emas. Internetning imkoniyatlari kundan - kunga oshib bormoqda. Bunga misol qilib: masofadan o'qitish, elektron kutubxonalar, telemeditsina, telemetrologiya, elektron tadbirkorlik, elektron magazinlar va masofaviy ta'lim usullarini sohalarni aytishimiz mumkin.



Masofaviy ta'lim uslubi o'qitishning yangicha zamonaviy shakli bo'lib, u tinglovchi (o'quvchi)ning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Mustaqil bilim olishga, izlanishga, fikrlashga o'rgatadi.

Masofaviy ta'limning afzalligi shundaki, unda har kim o'ziga qulay vaqtda, qulay joyda, qulay muhitda bilim olishi mumkin. Shu tufayli ushbu tizim bugungi kunda dunyoda keng ommalashmoqda.

Masofaviy ta'lim – o'quv jarayonining maqsadi, mazmuni, uslublari, o'qitish vositalari va internet texnologiyalari yordamida tinglovchi hamda o'qituvchilarning masofadan turib, interfaol muloqot qilish jarayoni hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda ko'pgina OTMLar, yirik korxonalar mutaxassislar malakasini oshirishda ushbu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab pul mablag'larini tejamoqda.

Shuningdek, masofaviy ta'limning tashkiliy-iqtisodiy afzalliklari ham mavjud bo'lib, masalan, o'qitish uchun sinflar, doskalar, stollar va boshqa o'quv qurollari zarur emas. Moliyaviy xarajatlar asosan o'quv-uslubiy materiallar tayyorlash hamda internet trafik uchun sarflanadi. Tabiiyki bu tizim samarasida xarajatlar kamayadi. O'quv-uslubiy materiallar qanchalik tushunarli va batafsil bo'lsa, shunchalik o'quvchiga foydali bo'ladi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada masofaviy ta'limning ahamiyati, kamchiliklari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek kamchiliklarga bir nechta yechim berilgan. Adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash metodlari, sotsial so'rovlar va intervyular, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Bugun oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashning zamonaviy tizimi xalqaro miqyosda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga, xususan, ta'limga ta'sir etuvchi iqtisodiy va ijtimoiy omillarga sezgir tarzda javob bera olishi kerakligini biz yana bir bor his etdik. Koronavirus pandemiyasi barcha ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini elektron yoki masofaviy jihatdan faollashtirishga sabab bo'ldi. Bugun vaqtni boy bermaslik, undan unumli foydalanish va yuzaga kelgan vaziyatdan chiqib ketish uchun barcha oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim tashkil etilgan. Xo'sh, bu vaziyatda masofaviy ta'lim qanday tashkil etilishi kerak? Bizdagi imkoniyatlar qanday? Pedagoglar va talabalar bu jarayonga tayyormi? Eng asosiysi, ta'lim sifati qanday bo'ladi? Uni qanday nazorat qilish va baholash kerak? Xalq ta'limi sohasida mazkur jarayonni tashkil etish ommaviy axborot vositalari, ya'ni televideniye yordamida amalga oshirilishi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ayrim muammolarning o'z-o'zidan hal bo'lishiga olib keldi. Oliy ta'lim muassasalarida esa turli sohalar va yo'nalishlar bo'yicha ixtisoslashtirilganlik masofaviy darslarni o'ziga xos tarzda, ya'ni avtonom tashkil etishni taqozo etadi. Bunda qanday muammolar tug'ilishi mumkin? Bu va yuqoridagi savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Bugun masofaviy ta'limning tashkil etilishi ularning sifatini baholashga shoshilinch ehtiyojni keltirib chiqaradi. Masofaviy ta'lim sifatini baholash deganda ayrim jihatlarga e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz. Xususan, baholash talabalar, o'qituvchilar yoki bevosita mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi mumkinligi, natijalarni rasmiylashtirish avtonom yoki tizim orqali bo'lishi, indikatorlarning aniqligi va natijalarning miqdor o'lchami qanday ifoda etilishini bilishimiz zarur. Avvalo, masofaviy ta'lim sifati deganda nimani anglamoq kerak? Biz sifat deganda, avvalo, masofaviy material, ya'ni elektron ta'lim resurslarining davlat yoki professional tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan standartlarga mosligini tushunamiz.



Masofaviy ta'lim sifati turli omillarga bog'liq bo'ladi: masofaviy o'quv kursining sifati, dasturiy ta'minot va Internet tarmog'ining sifati, pedagoglar sifati, ya'ni ularning pedagogik mahorati, nutq madaniyati, qolaversa, talabalar sifati kabilar. Masofaviy kurs bu shunday ta'limning to'liq didaktik jarayonini ifoda etuvchi tizim bo'lib, u namoyish, nazorat va muloqotdan iborat bo'ladi. Oliy ta'lim uchun bu jarayon yangilik emas, chunki barcha oliy ta'lim muassasalari xorijiy tajribani o'rganish asosida kredit-modul tizimiga o'tish uchun tayyorgarlik ko'rish bosqichida edi. Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, masofaviy kurslar quyidagilarni qamrab oladi:

- O'quv-uslubiy majmualar (fanlar, yo'nalishlar va tillar kesimida).
- Dasturiy muhit, veb-sayt va elektron resurslar joylashtiriladigan
- Internet tizim yoki platforma.
- Internet servislar va Internetga kirish imkoniyatlari.

Amalda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, masofaviy ta'lim sifatini nazorat qilishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz:

- Tashkiliy blok.
- Nazariy qismi.
- Amaliy qismi.
- Nazorat qilish holati.
- Pedagogik muloqot.

Tashkiliy blok – video, matn yoki boshqa elektron resursga kirish, talabalarni tanishtirish manzili (ijtimoiy tarmoq yoki forum), kurs uchun ishlatiladigan dasturiy ta'minotdan foydalanish uchun yo'riqnoma, kursni o'rganish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, kursning dasturi, Internetdan foydalanish etiketi, ya'ni qoidalarining mavjudligi.

Nazariy qismi – bu fan o'qituvchisi tomonidan fan dasturiga mos ravishda ishlab chiqiladigan ma'ruzalar, qo'shimcha matnlar, grafik yoki chizmalar, taqdimot materiallari. Ular tasdiqlangan fan dasturlaridagi barcha mavzu savollarni qamrab olishi, ularning mohiyatini yoritish bilan birga tushunarli, qisqa va lo'nda, ko'rgazmali bo'lishi maqsadga muvofiq.

Amaliy qismi – seminarlar tashkil etilishi, referatlar, esse va boshqalarning bajarilishini tashkil etish.

Nazorat qilish – testlar, oraliq va yakuniy nazoratlar, talaba portfoliosi kabilarning shakllantirilishi.

Pedagogik muloqot – maslahatlar, misollarning namunaviy yechimlari, tushuntirish va talabalar tomonidan berilgan savollarga javob tariqasidagi izohlarning pedagog tomonidan berilishi.

Masofaviy ta'lim sifatini baholashning dastlabki bosqichida masofaviy ta'limning yuqoridagi elementlarining mavjudligini baholash kifoya. Maksimum baho elementlar soni bilan o'lchansa, masofaviy kurs bahosi mavjud elementlar soni bilan o'lchanadi. Baho esa mavjud elementlar sonini talab etilayotgan elementlar soniga nisbati orqali aniqlangani ma'qul, deb hisoblaymiz. Baholash o'z yo'liga, biroq masofaviy ta'limning plyus (ijobiy) va minus (salbiy)lari mavjudligini unutmasligimiz kerak. Masofaviy ta'lim afzalliklari: Qulayligi. Universitet yoki institutga bormay, uyda bemalol o'qish mumkin. O'z fikrini yozma ravishda ifoda eta olishi, diskussiyalarda ishtirok etishi, mavzuni bir necha bor sinchkovlik bilan o'rganishi, ya'ni unga bir necha marta qaytish imkoni kabilar.

Tejamkorligi. Yo'lkira va vaqt sarflamay, uyda va hatto ishda shug'ullanishi mumkinligi.



Texnologiyasi. Internetga kirish mumkin bo'lgan har qanday joyda, ya'ni uydan tashqari avtobus, elektrichka va hokazolarda eng yangi texnologiyalardan foydalanish mumkinligi.

Boshqa imkoniyatlari. Talaba faqat o'zining kursdoshlari emas, balki butun dunyodagi talabalar bilan bog'lanishi, alternativ materiallardan foydalanishi mumkin va bunda ayrim faol talabalarning "monopoliyasi" mavjud emasligi kabilar. O'qituvchilar uchun muammoliligi – o'qituvchi an'anaviy ta'limga, ya'ni ma'ruza, jonli muloqot, tarqatma materiallarga o'rganib qolgan bo'lsa, u yangi texnologiyalar va dasturiy ta'minotdan foydalanishi muammo bo'lishi aniq. Buning ustiga o'qituvchida ko'rgazmali, elektron didaktik materiallar tayyor bo'lishi ham kerak. Ta'lim sifatini ta'minlash uchun elektron o'quv-uslubiy majmua tarkibiga kiritilishi lozim bo'lgan elementlar tarkibi bloklar kesimida quyidagicha bo'lishi lozimligini belgilash mumkin:

Tashkiliy blok:

1. Kirish;
2. O'quv guruhi a'zolari bilan tanishtiruv (forum);
3. Dasturiy ta'minotdan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma;
4. O'quv kursini o'rganish bo'yicha qo'llanma;
5. Fanning namunaviy va ishchi dasturi;
6. Setiket (internetdagi axloq qoidalari).

XULOSALAR

Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta'limni tashkil etishda yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda, bosqichma-bosqich kamchiliklarni bartaraf etib, muammolarni hal qilish, masofaviy ta'limdan samarali foydalanish yuzasidan turli darajadagi choralarni ko'rib borish ta'lim sifatiga erishishga olib keladi.

References:

1. Abdumajidov, A., Togayeva, N. (2022). Ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish masofaviy ta'lim. *Models and methods in modern science*, 15–20-betlar.
2. Dustkabilovich, R.O. (2023). Masofaviy ta'lim texnologiyalari tasnifi. *International journal of scientificresearchers (IJSR) INDEXING*,
3. Ergashevich, E.A., Sur'at, T. (2023). Masofaviy ta'lim texnologiyalari va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishi. *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 177–179-betlar.
4. Idrisovich, O.R., Arislanbayevna, Q.X. (2024, April). Oliy ta'lim muassasalarida texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini masofaviy o'qitishning ilmiy-metodik materiallarining mazmunini takomillashtirish. In *Konferensiyalar / Conferences*. Vol. 1, № 9, p. 686–689.
5. Meliqoziyevich, S.I. (2023). Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. "Qo'qon universiteti xabarnomasi", 152–155-betlar.
6. Valisherovna, U.M. (2023). Ta'lim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish. *Образование наука и инновационные идеи в мире*. с. 152–156.
7. Yorqinov, H. (2023). Ta'lim tizimida masofaviy o'qitish tizimi imkoniyatlari. *Scientific Impulse*. p. 1285–1291